

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
U.X.Xolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoiy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evatov	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
	SIYOSAT
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiyev	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
Бурҳониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни	297



UO‘K: 323/32.(575.1)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNING NAMOYON BO‘LISHI**ПОЯВЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****EMERGENCE OF IDEOLOGICAL THREATS IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION****Musaev Maqsud Tursunpo‘latovich**

Samarqand viloyati IIB Samarqand shahar bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 7-son ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lishi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy mafkuraviy tahdid omili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olayotganligi borasidagi fikrlar yoritilgan.

Аннотация

В данной статье научно проанализированы представления о проявлении идеологических угроз в условиях глобализации. В статье также освещаются соображения о том, что в современных условиях глобализации фактор современной идеологической угрозы охватывает все сферы политической, экономической, социальной, культурной и духовной жизни.

Abstract

This article scientifically analyzes the ideas about the manifestation of ideological threats in the context of globalization. The article also highlights the considerations that in today's conditions of globalization, the factor of modern ideological threat covers all spheres of political, economic, social, cultural and spiritual life.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, jamiyat, mafkura, tarbiya, sadoqat, manfaat, ma‘naviyat, madaniyat, tinchlik, barqarorlik.

Ключевые слова. Глобализация, общество, идеология, образование, лояльность, благо, духовность, культура, мир, стабильность.

Key words. Globalization, society, ideology, education, loyalty, good, spirituality, culture, peace, stability

KIRISH

Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida xavfsizlik va barqarorlikka rahna solishga intilayotgan mafkuraviy tahdidlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar jarayonida vujudga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar ta‘sir kuchi ortib bormoqda. Zero, hozirgi globallashuv sharoitida mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib borayotganligini anglash qiyin emas. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma‘naviy hayotiga ta‘sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda”[1. 263.]. Binobarin, mafkuraviy xurujlar inson e‘tiqodiga, turli din, millat va elatlar hamjihatligiga raxna solish orqali siyosiy ta‘sir doirasiga olish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, dunyo miqyosida mafkuraviy jarayonlarni tobora avj olishi oqibatida muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi, barqarorligi va siyosiy hamda konstitutsion tuzumni zaiflashtirishga bo‘layotgan tajovuzlar namoyon bo‘lmoqda. Albatta, mana shunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘zlarining jirkanch maqsadlariga erishish uchun turli hil usullardan, ya‘ni odamlarning diniy, milliy hissiyotlaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qilishadi. Shu o‘rinda, dunyoda vujudga kelayotgan murakkab vaziyat tufayli bugungi zamonning mafkuraviy tahdidlari tuzilishi yanada kengayib bormoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy mafkuraviy tahdid omili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy va hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Zero, dunyo

SIYOSAT

miqyosida hozirgi tahlikali davr ko'lamini shu darajaga yetdiki, endilikda mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash yetakchi o'ringa chiqdi. Madomiki, dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar jarayonida faqat qurol-yarog'lar emas, balki, o'zining mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lgan davlatgina yengib chiqadi. Xolbuki, mafkuraviy kurash faqatgina bir jamiyat va mamlakat miqyosida emas, balki xalqaro va davlatlararo miqyosda ham shiddat bilan davom etmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda dunyo miqyosida tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada odamzod o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolmoqda. Mazkur holat jahondagi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bugungi taxlikali zamonda mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni talab etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli illat mafkuraviy xurujlar o'zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali "o'zgacha" mafkuralarni insonlar ongiga singdirishda namoyon bo'lmoqda. Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsad larga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan yovuz g'oyalar mafkuraviy xurujlardir. Shu o'rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni teran anglagan holda g'oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta'sir o'tkazishda noan'anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o'zlarining g'arazli maqsadlarini "puxta" rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim.

Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va jaholatparastlik, giyohvandlik, odam savdosi ham buzg'unchi g'oyalarga asoslangan. Buzg'unchi g'oyalar tasnifidan o'rin olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta'sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo'layotgan turfa voqea-hodisalar, tez o'zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin. Bu borada fikr yuritganda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev: "dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"[1.285.] – deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, mafkuraviy tahdid orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish tobora oydinlashmoqda. Shu o'rinda, mazkur holat mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ta'sirchan samaradorligini oshirish nihoyatda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Xususan, "mafkuraviy tahdid" tushunchasini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ilmiy jihatdan yanada chuqurroq anglashga zarurat vujudga kelmoqda. Boisi, "Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ko'z yuma olmaymiz"[1.268.]. Tobora avj olayotgan mafkuraviy xurujlar, yot g'oyalar ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakat kengayib borayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun davom etayotgan mafkuraviy kurashlar oqibatida dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan mojarolar, milliy va diniy ziddiyatlar hamda ularning salbiy oqibatlari afsuski, insonni tashvishga solmasdan qo'ymaydi.

Ayniqsa, zamonaviy axborot maydonidagi harakatlarning jadallashuvi oqibatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish nihoyatda o'tkir qurolga aylanib bormoqda. Zero, globallashuv sharoitida mafkuraviy taxdidlarning xatarli tomoni "ayrim" internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'sir ko'rsatayotgani o'z navbatida teran fikrlashni taqozo etadi. Shu o'rinda, insonlarning qalbi va ongini egallash maqsadida uzluksiz davom mafkuraviy kurashlar oqibatida dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar tufayli sodir bo'layotgan mojarolar, qarama-qarshiliklar, nizolar hamda ularning salbiy oqibatlari afsuski, insonni tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Dunyoda shiddat bilan kechayotgan jarayonlar XXI asrda globallashuv ko'p jihatdan insoniyat taraqqiyot strategiyasini belgilab berishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

"Globallashuv (lot, globus – shap, Ep sayyorasi) –XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashish, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integrasiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalaring keng tarqalashi, axborot – mafkuraviy va diniy – ekstremistik xupujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha"[2.123.]. Shu bilan bir qatorda, globallashuv (inglizcha global — "dunyo", "jahon", "umumiy") — bu butun dunyo bo'ylab yangi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot birligini yaratish jarayonidir. Bugungi kunda milliy ma'naviyatimizga rahna solishga intilayotgan ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik tahdidlar ta'siri makon va zamon nuqtai nazaridan shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

AQShlik iqtisodchi Teodor Levitt bu atamani birinchi marta 1983 yilda ilmiy muomalaga kiritgan. Uolt Postou, Daniel Bell, Elvin Toffler, Piter Druker, Jon Neysbit, Lestep Turov 20-asr o'rtalaridan boshlab globallashuvning yangi bosqichining tupli jihatlarini o'rgandilar. Ulap fanni "intellektual sohalar iqtisodiyoti", "axborot jamiyati", "texnik inqilob", "axborot portlashi", "global qishloq" tushunchalapini kipitdi[3.254.]. 1985 yilda esa taniqli amerikalik olim R.Robeptson o'zining "Globaliztion" iborasini ilmiy muomilaga kiritib, bu tushunchani "odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi"ni aks ettirib, "dunyoning birlashuvchi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchayishini" ifoda etadigan japayon sifatida talqin etadi[6]. Shu o'rinda, globallashuvning avj olishi dunyo miqyosida umumlashgan g'oyalarni ilgari supayotganligi tobopa oydinlashmoqda. Zero, globallashuvning mazkur jihati davlat miqyosida millat, madaniyat va qadriyatlarni rad etuvchi g'oyani targ'ib etmoqda. Bu haqda, Germaniyaning Myunxen Universiteti sosiolog professori Ulrix Bek: "globallashuv eng avvalo millatsizlanish, milliy davlat qarashlarini yo'qolishi va tushunarsiz tpansmilliy xayot shaklidir"[4.], – deya ta'kidlagan edi. Zero, global tarzda tobora kuchayotgan mafkuraviy tahdidlar oqibatida millatchilik, ayipmachilik, anticemitizm, imperiyarapastlik, evposentpizm g'oyalapining ijtimoiy namoyon bo'layotganligi hamda jamiyatda siyosiy hayotini izdan chiqarishga intilayotganligi tashvishlidir.

Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z mafaatini ifodalovchi o'z mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdidlar jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf – xatarlar majmuasi. O'zbekiston ham bunday tahdidlardan chetda qolayotgani yo'q. Fuqarolar ongida bu siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mafkuraviy tahdidlar shaklida namoyon bo'lmoqda[5.1033.].

Shu o'rinda XXI asrga kelib mafkura poligonlarida o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi "ommaviy madaniyat" tahdidi tobora kuchayayotganini aytib o'tish joiz. Ayniqsa, G'arb olamida keng taraqqalayotgan erkinlik niqobidagi "ommaviy madaniyat" zamirida har qanday xalq va millat ma'naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy hatarlar yotibdi. Global miqyosda madaniyat ko'rinishida targ'ib qilinayotgan "ommaviy madaniyat" tahdidi yoshlarimiz ma'naviyati, dunyoqarashi va ahloqiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan "ommaviy madaniyat"ni aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar "yevropacha madaniyat" va "erkinlik" sifatida qabul qilishayotganligi barchamizdan bu borada jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Nega deganda, madaniyat ko'rinishidagi "ommaviy madaniyat" ta'sirida yoshlar qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo'lgan harakatlarni namoyon bo'layotganligi juda tashvishlidir. Qolaversa, ushbu

SIYOSAT

mafkuraviy – g‘oyaviy tahdid har qanday xalq va millatning o‘ziga xosligini rad etuvchi g‘oyani targ‘ib etmoqda. Shu tariqa, “ommaviy madaniyat” o‘zida tuban va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon etish orqali mamlakat taraqqiyotiga taxdid solayotganligi tobora oydinlashmoqda. O‘z navbatida, “ommaviy madaniyat” tarafdorlarining asl maqsadi milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonsizlik uyg‘otish orqali taraqqiy etayotgan davlatning moddiy va ma‘naviy boyliklarini egallashdan iboratdir. Aynan mazkur omillar, gegemon davlatlarning dunyoda o‘z hukmronligini o‘rnatishda zo‘ravonlik ruhiyatini va axloqiy buzuvchilikni ifoda etishda “ommaviy madaniyat”ni reklama, targ‘ibot va tashviqot qilish orqali madaniyatlararo ta‘sir ko‘rsatishda muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, “ommaviy madaniyat”ning asosiy xususiyatlaridan biri – gegemon davlatning madaniyatini rivojlanayotgan mamlakatga “eksport” qilishda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, qudratli davlatlar mafkuraviy ta‘sir o‘tkazish, milliy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda o‘zga davlat madaniyatiga ta‘sir etishda ta‘sirchan kulol sifatida “ommaviy madaniyat” niqobidan foydalanmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyatda vujudga keladigan ma‘naviy tubanlik va g‘oyaviy bo‘shliq tufayli yoshlarimizni qalbi va ongini zabt etish orqali ularni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga undayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidlarini o‘z vaqtida ogoh bo‘lishni taqozo etadi. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi faoliyat axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik g‘oyalarni tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning ko‘p ming yillik an‘ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma‘naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir. U odamlarning didini yuksaltirishga, milliy va jahon san‘atining mumtoz asarlarini tushunishga emas, balki ulardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi[6.464.]. Zero, “ommaviy madaniyat” avvalo, madaniyatsizlik ifodasi bo‘lib, insonga qarshi qaratilgan zo‘ravonliklar, fahsh, qotillik, hudbinlik kabi milliy ma‘naviyatimizga mutloq yot bo‘lgan, tuban illatlarni targ‘ib etmoqda. G‘arbcha libosidagi “ommaviy madaniyat” ekspansiyasi tabiiy ravishda har qanday xalq va millatlar o‘rtasida madaniyat borasida o‘zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu omillar “ommaviy madaniyat” ta‘siri ostida azaliy qadriyatlar tizimini vayron etish orqali shaxsni tubanlashuv girdobiga yetaklashini anglash lozim. Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari insonlar qalbi va ongida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini so‘ndirib xalqni azaliy ma‘naviyati va e‘tiqodidan mahrum etish orqali millatni o‘zligi hamda tarixidan judo qilishga intilmoqda.

Globalashuv sharoitida “ommaviy madaniyat” quyidagi holatlarda namoyon bo‘lmoqda: axloqiy buzuvchilik, zo‘ravonlik, egotsentrizm, ayollarni ichkilik va kashandalikka ruju qo‘yishi, pornografik mahsulotlarni targ‘ib etish, inson tanasiga turli xil tatuirkovkalar chizish, bir xil jinsdagi kishilar bilan turmush qurishi kabi illatlar tobora kuchaymoqda. Hozirgi kunda “ommaviy madaniyat”ning nisbatan keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri sifatida **kosmopolitizmni** alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. **Kosmopolitizm** - (yunoncha, “kosmopolites”-“dunyo fuqarosi”) g‘oyasi asosida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, “**inson dunyo fuqarosi**” shiori asosida vatanparvarlik, davlatlarni mustaqilligi, milliy madaniyat va ma‘naviyat kabi qadriyatlarni inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ‘ib qiluvchi dunyoqarash g‘oyasini singdirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu g‘oyaning asoschisi yunon mutaffakiri Aristotel bo‘lib, Iskandar yurishlari davrida ildiz otgan. Kosmopolitizm milliy an‘ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga — bevatanlikka da‘vat etadi. Ayniqsa, hozir kosmopolitizm (dunyo fuqarosi) g‘oyasi kuchayib bormoqda. Bunda milliy, diniy qadriyatlar, asriy an‘analar tan olinmaydi. “Vatan”, “millat”, “milliy davlatchilik” tushunchalari eskirdi hammamiz bitta davlat, bitta hukumat tuzamiz, Vatanningni qo‘y, dunyo fuqarosi bo‘l”, degan g‘oya kosmopolitizmga tegishlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Ommaviy madaniyat”ning jamiyat uchun ancha xavfli va xatarli shakllaridan yana biri “**Nigilizm**”dir. “**Nigilizm**” lotincha nihil – “hech nima” — o‘zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik ya‘ni, muayyan millat vakillarining o‘z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o‘z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm o‘zida tarixiy hamda madaniy qadriyatlarini inkor etish orqali umume‘trof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o‘ta tanqidiy munosabatlarda bo‘lish orqali axloqiy tubanliklarni namoyon etib, o‘zida bo‘zg‘unchilik g‘oyalarni aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illatlari ta‘siriga tushgan insonlarning mafkuraviy immuniteti zaiflashishi oqibatida ularning qalbi va ongida o‘zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada, nigilizm ta‘siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan befarq, loqayd odamlar sifatida gavdalanayotganligi achinarli va tashvishli holdir. Shu

bilan birga, ayrim yoshlarni xorijga borib ishlash kayfiyatining yuqori ekanligi, birdaniga boyib ketishga bo'lgan xavasn ustunligi, yashash uchun pul topish oson bo'lsa, o'sha joyni "vatan" deya his etishi afsuski, vatanparvarlik tuyg'usini parokanda bo'layotganligi bu borada mafkuraviy tarbiya borasida jiddiy o'ylashga majbur qiladi. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"[7.3.]. Binobarin, bugungi globallashuv shiddati mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda avvalo zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, ilm-ma'rifat va yuksak ma'naviyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"[8]. Binobarin, o'z milliy g'oyasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo'lishini barcha yurtodoshlarimiz teran anglashi lozim. Xulosa qilib aytganda, millatimiz fidoiylari ma'rifatparvar jadid bobolarimizning "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", degan so'zlarida teran ma'no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining tamal toshi bevosita ta'lim — tarbiya masalalariga qaratilayotgan e'tibor bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. — Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти. 2021.
2. Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти». 2021.
3. Смит Дж. Империализм в XXI веке: глобализация производства, сверхэксплуатация и финальный кризис капитализма. М. Горизонталь 2022. — 542 с.; Добренков В.И. Глобализация духовности. Академический проект 2019. — 589 с.; Болдуин Р. Великая конвергенция: информационные технологии и новая глобализация. М. Дело 2018. — 416с.
4. Ульрих Бек. Что такое глобализация? — <http://www.old.kspu.ru/ffec/philos/chrest/g18/bek.html>.
8. Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. https://t.me/ares_uz
6. Ходжаева Д. Маънавий таҳдид: унинг моҳияти, кўринишлари ва уларга қарши курашнинг зарурати // "Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари" республика илмий-амалий конференцияси материаллар тўплами. — Тошкент: 2019.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар — янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи. 2020 йил 1 октябрь, № 207 (7709).
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши. Халқ сўзи. 2021 йил. 20 январь.